

O'ZBEK VA QORAQALPOQ XALQ ZARGARLIK LEKSIKASI

Erejepova Aysuliv

*Nukus DPI O'zbek tili kafedrası
o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek va qoraqalpoq xalqlarining zargarlik leksikasi tahlil qilinadi. Zargarlik san'ati milliy madaniyatning muhim qismlaridan biri bo'lib, uning leksikasi xalqlarning tarixiy, madaniy va an'anaviy xususiyatlarini aks ettiradi. Maqola zargarlik san'atining tarixi, uning rivojlanish jarayoni, shuningdek, o'zbek va qoraqalpoq zargarlik leksikasida uchraydigan asosiy atamalarni o'z ichiga oladi. Zargarlik leksikasining o'ziga xosligi va farqlari tahlil qilinib, matn ustida ishlash usullari orqali zargarlik leksikasini o'rganishning ahamiyati ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: zargarlik leksikasi, an'anaviy san'at, qimmatbaho toshlar, taqinchoq, tarixiy an'analar, madaniyat, leksika.

O'zbek va Qoraqalpoq xalqlari zargarlik leksikasi, ularning an'analari va madaniyatini aks ettiruvchi muhim sohalardan biridir. Zargarlik, ya'ni metallni qayta ishlash va bezatish san'ati, har ikki xalqning an'anaviy hunarmandchilik faoliyatida muhim o'rin tutadi.

Qoraqalpoq zargarlik san'ati uslubi o'zining hashamati, simmetrik shakli va jonli aylana konturlari bilan ajralib turadi. Zargarlar asosan ayollar zargarlik buyumlari va bolalar tumorlarini ishlab chiqarishgan. Erkaklar uchun, uzuklar, kamarlar va kamar to'qasi, qurol-yarog' qismlari va ot anjomlari yasalgan. Barcha zargarlik buyumlari yovuzlikdan asrovchi va baxtga eltuvchi tumorlar hisoblangan.

Qoraqalpoq naqshlari va bezaklari juda qadimiy bo'lib, ular skiflar davriga borib taqaladi. Ular ibodat razmlari va totemlarni o'zida aks ettirgan. Bu zargarlik buyumlarining ko'pchiligi, masalan "shar-tuyme", "anshik" shokilalari, "burgutning tog' qo'yga hujumi"ni tasvirlayotgan chakka tumori (kiran) lar boshqa xalqlarda uchramaydi.

Zargarlar yosh qizlar uchun katta marjonlar ishlab chiqarishgan. Bular jumlasiga: *jumalak-tuyme* ("ilon izi" nomli belbog' naqshli, yarim tuxum shaklidagi bezaklar); *baka tuyme* (uslubga solingan baqalar); *shar-tuyme* (xoch shakliga ega Quyosh va Olov ramzi) lari kiradi. "Jaranglaydigan" tasma naqshli *ongirmonshak* bezagi yovuz ruhlarni haydash qobiliyatiga ega deb ishonilgan. U gumbazsimon shaklga ega edi, uning yumaloq asosidan jaranglaydigan *goza* sharlari (yong'oqlar) va rombli zanjirlar o'tkazib chiqilgan edi.

O'ziga xos ayollar chakka sirg'asi *silsineli-sirga*, iyak ostida romb shaklidagi shokilali zanjir bilan bog'langan. Ushbu zanjir to'y kuni kelinning kiyinish

marosimidan so‘ng yechib qo‘yilgan, va shundan so‘ng u *soyau-sirga* (bargsiz poya) deb atalgan.

Qoraqalpoq ayollarining ulkan bo‘yinga taqiladigan zargarlik buyumlarida (haykel) shoxi tepaga qayrilgan buqa va shoxi pastga qayrilgan qo‘y tasvirlari bilan bog‘liq shoxsimon uchlari bo‘lgan. “Xaykel” nomi ularning ajdodlarining sig‘inishlari va totemizmdan kelib chiqqan. Kuchli buqa va serpusht qo‘yning shoxi yovuz kuchlardan asrovchi xususiyatga ega deb hisoblangan va “oy buqasi” va “quyosh qo‘yi” ramzlari sifatida ko‘rilgan. Boshqa turdagi qoraqalpoq zargarlik buyumlari, qal’a devori (boshpana ramzi) va gullagan uch barg butasi (Umay ramzi -homilador ayol va bolalar himoyachisi) tasvirlarini o‘zida aks ettirgan edi. Zargarlik buyumining markazida tumor-kovak g‘ilof bo‘lib, uning ichida qadimdan “yovuzlik kuchlaridan asrovchi” igna saqlangan. Hududga Islom dini kirib kelganidan so‘ng, ignaning o‘rnini qog‘ozda yozilgan duo egalladi. Xaykel kelin sepining asosiy zargarlik buyumi hisoblangan. Uni kelin, farzand ko‘rishgacha bo‘lgan butun davr davomida tumor qilib taqib yurgan.

Qadimda turmushga chiqqan qoraqalpoq ayollarni oltin yoki kumush *arebek* deb nomlangan burun uzugini taqib yurishgan. Shunga o‘xshash burun uzuklari turkmanlar, o‘zbek-qipchoqlari, arablar va boshqalarda uchragan.

O‘zbek va Qoraqalpoq zargarlarining an’anaviy badiiy buyumlariga zargarlik bilakuzuklari, taqinchoqlar, soatlar va boshqalar kiradi. Har ikki xalq zargarlari o‘z milliy naqsh va ornamentlariga ega. O‘zbek zargarlarida ko‘pincha gullar va geometrik naqshlar ishlatiladi, Qoraqalpoq zargarlarida esa ko‘proq simmetrik va figurativ naqshlar uchraydi. O‘zbekiston va Qoraqalpoqstan zargarlarida oltin va kumush ishlov berish jarayoni an’anaviy ravishda davom etmoqda. Ushbu materiallar bayramlar va to‘y marosimlarida katta ahamiyatga ega.

O‘zbek va Qoraqalpoq leksikasida ayrim atamalar va iboralar farqlanadi. Masalan, "zargarlik" so‘zi O‘zbekistonda keng tarqalgan bo‘lsa, Qoraqalpoqda uning sinonimlari yoki boshqa atamaları ishlatilishi mumkin. Har bir xalqning o‘ziga xos, an’anaviy terminlari va atamaları mavjud. Ular zargarlik jarayonlarini va texnologiyalarini ifodalaydi.

Xulosa: *Ushbu tadqiqot natijalari o‘zbek va qoraqalpoq xalqlarining madaniy merosini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi va zargarlik san’atining kelajakdagi rivojlanishida muhim omil sifatida xizmat qiladi. Zargarlik leksikasi nafaqat hunarmandchilik sohasida, balki milliy madaniyat, urf-odat va an’analar bilan bog‘liq bo‘lgan muhim jihatlardir. Ushbu leksikaning o‘rganilishi o‘zbek va qoraqalpoq xalqlarining tarixiy va madaniy merosini chuqurroq anglashga yordam beradi.*

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Azimova, D. (2018). "O‘zbek zargarlik san‘atida an‘anaviy elementlar". *Ona tili va adabiyoti*, 3(4), 45-50.
2. Buranov, I. (2020). "Zargarlik leksikasi va uning madaniy ahamiyati". *Tadqiqot va innovatsiyalar*, 2(1), 112-118.
3. Maxmudov, R. (2015). *Qoraqalpoq xalq zargarligi*. Nukus: Qoraqalpoq Davlat Universiteti.
4. *Qoraqalpoq xalq zargarligi: Tarix va an‘analar*. 2018.
5. Toshbekov, A. (2010). *O‘zbekiston zargarlik san‘ati: tarix va an‘analar*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti.
6. Zarifova, F. "O‘zbek zargarlik san‘ati: Tarixiy rivojlanish" 2009.
7. Xudayarova, M., & qizi Usanova, Q. M. (2023). O ‘ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA OTLARNING KELISHIK KATEGORIYALARI. CHIQISH KELISHIGI QIYOSI. *GOLDEN BRAIN*, 1(4), 62-66.
8. Usanova, Q., & Xudayarova, M. (2023). O ‘ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA OTLARNING KELISHIK KATEGORIYALARINING QIYOSIY TADQIQI. *Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук*, 3(6), 54-56.
9. Xudayarova, M., & Usanova, Q. (2023). "BOBURNOMA"–TARIXIY MANBA SIFATIDA. *Академические исследования в современной науке*, 2(4), 24-27.
10. Худаярова, М. Т., Буранова, Ш. М., Юсупова, Г. А., & Сапарова, А. З. (2021). Қорақалпоғистон Худудида Яшовчи Туркий Халқлар Тилидаги Таом Номларининг Лексик Қатламлари. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(5), 25-32.
11. Xudayarova, M. (2020). *Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalaridagi taom nomlarining o‘ziga xos xususiyatlari*. *TDPU ILMIY AXBOROTLARI*.
12. Tajimuratovna, X. M. (2024). QORAQALPOG ‘ISTON HUDUDIDAGI EKKLEZIONIMLARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 2(3), 179-183.
13. Usanova, Q., & Xudayarova, M. (2024). O‘ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA FE’L SO ‘Z TURKUMI. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 4(3), 25-27.